

KASBIY QIZIQISHLAR PSIXODIAGNOSTIKASI VA KASBGA YO'NALTIRISH TUSHUNCHASINING O'SMIRLARDAGI XUSUSIYATLARI

Haydarova Bibijamol Qo'ldosheva

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: O'smirlarning kasb tanlash jarayonida xotiraning mustahkamligi va tafakkurning kengligi ham eng zaruriy tushunchalardan sanaladi. O'smirlar ta'lim muassasalarida olgan bilim va ko'nikmalari xotirada saqlanib boradi. Pirovardida bu bilim va ko'nikmalar kasbiy faoliyat jarayonda asqotishi shubhasiz. Ba'zan yuqori sinf o'quvchilari o'z xotiralarida saqlanib qolgan bilim va ko'nikmalarga tayangan holda kasb tanlaydilar. Bu oliy ta'lim muassasalarini tanlash jarayonida muayyan fandan olingan bilimlar yuqori ekanligiga tayanilishida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: psixodiagnostika, kasbga yo'naltirish, o'smirlar, kasb, o'smirlar, imkoniyat, harakat.

Аннотация: В процессе выбора профессии подростком прочность памяти и широта мышления также считаются одними из самых необходимых понятий. Знания и навыки, полученные подростками в учебных заведениях, сохраняются в памяти. В конечном счете, эти знания и навыки, несомненно, будут использоваться в процессе профессиональной деятельности. Иногда старшеклассники выбирают профессию, опираясь на знания и умения, сохранившиеся в их памяти. Это проявляется в том, что в процессе отбора в высшие учебные заведения опираются на то, что знания, полученные по конкретному предмету, высоки.

Ключевые слова: психодиагностика, профориентация, подростки, профессия, подростки, возможность, действие.

Annotation: In the process of choosing a profession for a teenager, the strength of memory and breadth of thinking are also considered one of the most necessary concepts. The knowledge and skills acquired by teenagers in educational institutions are stored in memory. Ultimately, this knowledge and skills will undoubtedly be used in the course of professional activity. Sometimes high school students choose a profession based on the knowledge and skills preserved in their memory. This is reflected in the fact that the selection process for higher education institutions is based on the fact that the knowledge gained in a particular subject is high.

Keywords: psychodiagnostics, career guidance, adolescents, profession, adolescents, opportunity, action.

Ta'lim oluvchilarning muayyan kasbni tanlashlari ularning shaxs sifatida shakllanishining muhim bosqichlaridan hisoblanadi. O'smirlar kasbiy qiziqishlari psixodiagnostikasi muammosini aniqlashtirish shunisi bilan qiyinki, aynan shu davrda inson o'z hayotini belgilalab beruvchi muhim qarorlarni qabul qiladi. Ammo bunday qarorlar o'zining noaniqligi, chuqur o'ylanmaganligi, orzularga asoslanganligi bilan ajralib turadi.

Bu borada Y.A.Klimovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli bo‘ladi: “psixologik rivojlanishning muhim belgisi sifatida taraqqiyot imkoniyatlarini faol qidirish, o‘zini jamiyatda o‘zgarishlarni amalga oshiruvchilar qatorida ko‘rish istagi kabilarni keltirish mumkin” [1:47]. Boshqacha aytganda yuqori sinf o‘quvchilarining katta qismida maktabni tamomlagandan keyingi faoliyat haqida to‘liq bo‘lmagan tasavvur shakllanadi. Ya‘ni o‘smir qaysi oliy o‘quv yurtida tahsil olishini aniq bilsa ham, keyingi mehnat faoliyatida nima ishlar bilan shug‘ullanishini to‘liq tasavvur qila olmaydi. Bu jarayon uning qiziqishlarini qondira oladimi, aynan shu kasbdagi faoliyatdan zavqlanadimi, yo‘qmi – bu kabi savollarga aksariyat o‘smirlarda aniq javob bo‘lmaydi. Chunki aksariyat hollarda o‘smirlarning kasb tanlashida ota-ona va boshqa yaqin qarindoshlarning ta‘siri hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli pedagoglar o‘quvchidagi qobiliyat va iqtidor, shuningdek, qiziqishlardan kelib chiqqan holda uni kasbga yo‘naltirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shundagina o‘smirning kelajakda o‘z mehnat faoliyatiga qiziqish bilan yondashadi.

Rus olimi V.S.Muxinaning fikriga ko‘ra, shaxs o‘smirlik davrida o‘z-o‘zi va atrofdagilar bilan muayyan ziddiyatlarga duch keladi[2]. O‘smirlik davrida kelajakda egallanadigan kasbga mos tarzda tahsil olish jarayoni boshlanadi. Ya‘ni kelajakda egallamoqchi bo‘lgan kasbi talab etuvchi fanlarning kichik guruhi bo‘yicha alohida tayyorgarlik jarayoni kecha boshlaydi. Umuman olganda, o‘smirlar va yoshlar rivojlanish va hayotiy tajribalari oshib borishi jarayonida ularning psixologik xususiyatlari ham o‘zgarib boradi. O‘smirlarda o‘qish asosiy maqsadga aylanganda ularda psixologik jarayonlar ta‘lim olish jarayoni bilan birga o‘zgarib boradi. Ammo o‘smirlik davri inson ruhiyatida bo‘ladigan juda ko‘p o‘zgarishlar bilan kechadi. Bu o‘smirlarning voyaga yetishi, kattalar safiga qo‘shila boshlashi bilan bog‘liq bo‘ladi. Aynan shu davrda o‘smirlar o‘zlarini hech kimga bog‘liq holda his qilmaslik, mustaqil holda, ya‘ni o‘z irodalaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilishga harakat qiladilar. Pirovardida o‘zlarini katta kishilardek tutishga harakat qiladilar. Kasb tanlash jarayoni ham o‘smirlar ruhiyatida ro‘y beradigan ana shunday o‘zgarishlar sirasiga kiradi. Shunday bo‘lsa-da, bu jarayon o‘ziga yarasha qiyinchiliklarga ega ekanligini ta‘kidlash lozim. Albatta, bu umumiy qoidalar hisoblanadi. Zero, har bir o‘smir o‘z individual xususiyatlariga, kasb tanlash jarayonida o‘ziga xos qaror qabul qilishi mumkinligini ham yoddan chiqarmaslik lozim. Har bir o‘smirning rivojlanish bosqichlarida ularning psixologik o‘zgarishlar puxta ta‘lim olish bilan birga kechishi kerak. Chunki har qanday kasbni egallash uchun shaxsda bilim, ko‘nikma va malaka bo‘lishi talab etiladi.

“Kasb tanlayotgan yoshlarda kasb tanlash uchun zarur bo‘lgan muhim psixologik xususiyatlar zarur bo‘ladi” [3:303]. Yoshlardan kasb tanlash jarayonida talab etiladigan xususiyatlar jismoniy sog‘lomlik va ruhiy barkamollik kabilardir. Shaxsdagi psixologik xususiyatlarning me‘yoriy rivojlanib borishi va ularning o‘z yoshiga mos holda namoyon bo‘lishi kasb tanlashdagi imkoniyatlarni oshiradi, albatta. Shu bilan birga o‘smirda iroda mustahkamligi ham bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘smirlarning o‘zlariga mos kasb tanlashlarida tafakkur qilish me‘yoriyligi, xayolning o‘ziga xos tarzda shakllanganligi, sezgirlik va diqqatning joyidaligi ham zaruriy unsurlardir. Irodalilik tanlangan kasb qiyinchiliklarini yengib o‘tish, muammoli vaziyatlarda dovdorab qolmaslik,

ularni yengib o‘tishda mardonavorlikni namoyon etishda zarur bo‘ladi. Chunki har bir kasbning o‘ziga xos qiyinchiliklari mavjudligi, ularni yengib o‘tgandagina yetuk mutaxassis bo‘lib yetishish mumkinligi barchamizga ayon. Shu tufayli o‘smirning kasb ko‘nikmalariga ega bo‘lish jarayonida qiyinchiliklar oldida ojizligini namoyon qilib, undan yuz o‘girishi, boshqa kasbni tanlashga intilishi uning irodasizligini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, o‘smir o‘zi sevib tanlagan kasbni egallashi uchun juda ko‘p kuch sarflashi, buning uchun katta sabr-toqat va chidamga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi. Darhaqiqat, iroda insonni doimo oldinga boshlab turuvchi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo‘lgan muhim tuyg‘udir. Chunki “iroda – insonning fikrlash jarayoni asosida qaror qabul qilish va qabul qilingan qarorga muvofiq o‘z fikrlari va harakatlarini boshqarish qobiliyati”[4]dir. Ya’ni iroda shaxsning o‘z faoliyatini ongli tarzda va aniq maqsad bilan tartibga solish va tizimlashtirish qobiliyatidir. Iroda maqsadga erishish yo‘lida duch kelinadigan murakkabliklarni yengish uchun aqliy va jismoniy imkoniyatlarni yo‘naltirish qobiliyatida yuzaga chiqadi. Anglashiladiki, iroda o‘smirlarning kasb tanlash jarayonida eng zaruriy psixologik tushunchalardandir.

O‘smirlarning kasb tanlash jarayonida xotiraning mustahkamligi va tafakkurning kengligi ham eng zaruriy tushunchalardan sanaladi. O‘smirlar ta’lim muassasalarida olgan bilim va ko‘nikmalari xotirada saqlanib boradi. Pirovardida bu bilim va ko‘nikmalar kasbiy faoliyat jarayonida asqotishi shubhasiz. Ba’zan yuqori sinf o‘quvchilari o‘z xotiralarida saqlanib qolgan bilim va ko‘nikmalarga tayangan holda kasb tanlaydilar. Bu oliy ta’lim muassasalarini tanlash jarayonida muayyan fandan olingan bilimlar yuqori ekanligiga tayanilishida namoyon bo‘ladi. Aslida, “Xotira – in’ikos etilgan narsa va hodisalarni yoki o‘tmish tajribalarni esda qoldirish va zarur bo‘lganda tiklashdan iborat psixik jarayon” hisoblanar ekan, kasb tanlash jarayonida bu bilim o‘zlashtirish va shu bilimni amaliyotda faol qo‘llashda yuzaga chiqadi[5:500]. Xotira inson ruhiyatining o‘tmishi bilan hozirgi holatni qiyoslashda shaxs faoliyatiga ko‘maklashadi. Umuman olganda, xotira kasbiy faoliyat jarayonida ham insonning rivojlanishi, kasbini kamolga yetkazishda ham zaruriy tushuncha sanaladi. Har bir sohada rivojlanish, taraqqiy etish jarayoni kechadi. Ana shu rivojlanish jarayonlarida sohalarga yangi texnika va texnologiyalar kirib borar ekan, xodim ulardan foydalanishni o‘z xotirasida saqlab boradi. Keyingi faoliyatida bu texnika va texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari xodimning tajribaliligini belgilovchi indikator bo‘lib xizmat qiladi.

O‘smirlarning kasb tanlash jarayonida qobiliyat ham eng muhim psixologik tushunchalardan biri sifatida qaraladi. “Qobiliyat – insonning individual salohiyati va imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobiliyat esa shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xsusuiyati sanaladi” [6:31]. Shu o‘rinda qobiliyatni malaka va ko‘nikmadan ham farqlash muhimligini ta’kidlash lozim. Qobiliyat insonning ko‘nikma va malakalarni egallashi jarayonida mukammallashadi. Qobiliyat deganda, shaxsning muayyan faoliyatni bajarishdagi mahoratini tushunish maqsadga muvofiq. Qobiliyat narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shaxsning biror sohada yuritadigan faoliyatida muayyan muvaffaqiyatga

erishishda qobiliyatning zaruriyligi tabiiy holdir. Shuni ta’kidlash lozimki, har qanday kasbda faoliyat yuritish jarayoni qobiliyatlar jamini talab qiladi. Shu tufayli “amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muhim va dolzarb vazifalardan biri qobiliyat kurtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko’ra shaxs qobiliyatlari yo’nalishlarini ochib berishdan iborat” [7:311-314]. Bunda nafaqat amaliyotchi psixologlar, balki pedagoglar ham muhim o’rin tutadi. Bolalikdan o’quvchining muayyan kasb yoki sohadagi faoliyat yuritishga bo’lgan qobiliyatning aniqlanishi va rivojlantirilishi pedagoglar faoliyati bilan bevosita bog’liq. Chunki pedagogning mutaxassis sifatida yetuklikka erishmaganligi ko’pdan ko’p o’quvchilar qobiliyatlarining yuzaga chiqmay qolishi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi mumkin bo’lgan kasbni egallamasligiga sabab bo’ladi. Ma’lum bo’ladiki, o’quvchi qobiliyatini erta aniqlash, uni taraqqiy ettirish ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi har bir xodimning eng avvalgi vazifalaridan bo’lishi kerak.

Har bir o’smir o’zi tanlagan kasbni sevishi uning muvaffaqiyatli faoliyatini ta’minlovchi asosiy vositalardandir. O’smirlar o’z kasblarini tanlashlarida his-tuyg’ulariga tayanishlari lozim. Har bir o’smir o’zi qiziqqan va sevgan sohasi, uning xususiyatlarini to’liq bilavermaydi. O’smirlarning o’z sevgan kasblarining xususiyatlarini mukammal o’zlashtirishlarida pedagoglar, psixologlarning roli beqiyosdir. “O’quvchi o’smirlik davrida hammaga narsaga tanqidiy ko’z bilan qaraydigan, hammaga ham ishonavermaydigan bo’lib qoladi. Psixolog shunaqa o’quvchilar bilan gaplashganda uning har bir so’ziga ishonishni boshlaydi. Shu tariqa o’quvchi o’z qiziqishlarini bilib olishga intiladi” [8:52-54]. Umuman olganda, o’quvchiga mavjud barcha kasblar haqida ma’lumot berilganda u o’zi uchun sevimli bo’lgan faoliyat turini tanlab olishi mumkin bo’ladi. O’smir ulg’ayib borar ekan, bu boradagi tanlov ham o’zgarib borishi mumkinligini unutmasligimiz kerak. Aksariyat o’smirlarni o’z tanlagan kasbini nima uchun sevish lozimligi haqidagi savollar qiynaydi. Ba’zi o’smirlarda har bir kasbdan maqsad yaxshi pul topishdan iborat, uni sevish keyingi masala, degan noto’g’ri tasavvur paydo bo’ladi. Ana shunday o’rinlarda pedagog va psixologlar o’z kasbiga muhabbat qo’ygan xodimgina undan yaxshi moddiy manfaatdorlikka erishishi mumkinligini hamda faoliyatdan rohatlanishini tushuntirishlari talab etiladi. “O’smirlarning aksariyati o’z qobiliyatlarini oqilona baholay olmasliklari tufayli u yoki bu kasbni egallash uchun qanchalik tez va aniq harakat qila olishlarini, bu ishga moslasha olishlari mumkinligini bilmaydilar. Biroq mazkur ko’ngilsiz holatlarning oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud” [9:76]. Bu kabi muammolar o’smirlarning o’z qobiliyatlari va qiziqishlariga mos bo’lgan kasbni tanlashlariga ko’maklashish vositasida hal etiladi. Ma’lum bo’ladiki, o’smirlar va yoshlar o’z tanlagan kasbini sevsa, unda faoliyat yuritishda muayyan qobiliyatga ega bo’lsa, uning mehnat samaradorligi yuqori bo’ladi. Mehnat jarayonidan zavqlanadi va haoyotdagi o’rnidan qoniqish hissiga ega bo’ladi. Sanalganlar o’smirning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo’ladi. Bu jarayonda pedagog, psixolog, ota-ona siymosida kattalarning roli katta bo’ladi.

O'smirlarning kasb tanlash davomida ikkilanishlar, o'zgarishlarga uchrashi bir nechta omillarga bog'liq. Bunday omillar birinchi navbatda o'smirlarning kasb tanlashdagi qiyinchiliklarga duch kelishi, bu borada boshqalar ko'magiga muhtoj bo'lishida namoyon bo'ladi. Zero, o'smir hali yetarli hayotiy tajribaga, aqliy yetuklikka erishmagan bo'ladi. Kasb tanlash jarayonida o'smirlar quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin:

1) o'smirning ijtimoiy yetuklikka erishmaganligi, mustaqil qaror qabul qila olmasligi. Oilaviy tarbiya va maktab ta'limi bolada kattalar ko'rsatgan yo'ldan yurish lozimligini uqtiradi va unda shunday instinkt paydo bo'ladi. Zamonaviy ta'lim jarayonlari o'quvchining mustaqil fikrlashini talab qilayotgan bo'lsa-da, bu jarayon hali butun mamlakatni qamrab olmaganligini unutmash lozim. Shu sababli mutaxassislar va ota-onalar o'smirlarga tayyor qarorni bermasdan, uni to'g'ri qaror qabul qilishga undashlari, shunga yo'naltirishlari lozim;

2) kasb tanlashga ta'sit qiluvchi omillarni bilmaslik. Muayyan kasb uchun zarur bo'lgan salomatlikning talab etilgan darajasi, qiziqish va qobiliyatning muhimligi, kadrlarga bo'lgan ehtiyoj bo'yicha logistik holat kabilar shular jumlasidandir;

3) kasb tanlashda his-tuyg'ularga erk berish. O'smirlar aksariyat hollarda kasb tanlayotganda uning tashqi tomonlarigagina e'tibor qaratadilar. Masalan, sportchilarning g'alabadan keyin shon-sharafga erishishlari o'smirlarni o'ziga rom qilishi mumkin. Ammo bu g'alabaning ortida tinimsiz qilingan mashg'ulotlar, uchralgan yuzlab mag'lubiyatlar yotganligini o'smir bilmasligi mumkin. Shunday mashaqqatlar mavjudligini bilsa, balki, bu kasbni umuman tanlamagan bo'lishi mumkin bo'ladi. Albatta, sanalganlar o'smirlarning muayyan kasbni tanlashdagi qiyinchiliklarning barchasini qamrab ololmaydi. Kasb tanlashdagi qiyinchiliklar sirasiga o'quvchining individual imkoniyatlari va sharoitlari bilan bog'liq holda, sifatli ta'lim olishga imkoniyat mavjud emasligi, iqtisodiy ta'minoti yetarli emasligi, atrof-muhitning ta'siri kabi omillarni ham bimalol kiritish mumkin. Shunday bo'lsa-da, mutaxassislar va boshqalarning vazifasi kasb tanlashdagi sanalgan qiyinchiliklar ta'sirini minimallashtirishdan iboratdir. Umuman olganda, har bir pedagog, psixolog o'smirlarning o'z sevgan kasblarini egallashlariga, qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlariga harakat qilishi lozim. Shundagina mamlakatimiz yetuk kadrlar bilan ta'minlanadi. Har bir kasbni o'z sohasining bilimdoni va jonkuyari egallaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Зеер Э.Ф. Психология профессионального самоопределение в ранней юности. – Москва: Издательство МПСИ, 2008. – 256 с.

2. Мухина В.С. Возрастная психология: феноменология развития, детство, отрочество. – Москва: Академия, 2004. – 456 с.

3. Abduraxmonov F., Abduraxmonova Z. Kasb psixologiyasi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 352 b.

4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Iroda_\(psixologiya\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Iroda_(psixologiya)) [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 21.06.2023.

5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси: 12 жилдлик, 9-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2005. – 704 б.

6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси: 12 жилдлик, 11-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2005. – 608 б.

7. Bobojonova R. Kasb tanlashda qobiliyatning o‘rni va kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari // Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta’limning innovatsion yo‘nalishlari, Vol. 1(3), 2024. – P.311-314.

8. Xalikova Sh., Hakimov B. Sevimli kasb tanlashdagi muammolar va ularni bartaraf etish usullari // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies, 2022. №2(4). – P.52-54.

9. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. I kitob. – Toshkent: Universitet, 2010. – 167 b.